

TURIZMNI KLASTER USULIDA RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'NALISHLARI

Babayeva Lola

Qarshi davlat universiteti Turizm va marketing kafedrası katta o'qituvchisi

Normurodova Zebo

Qarshi davlat universiteti Turizm va marketing kafedrası o'qituvchisi

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar:

Tarmoqlarni klasterlash, ilmiy tadqiqotlar olib borish, Vertikal integratsiyaga asoslangan klasterlash, texnologiyalar tarqalishining tuzilmaviy tizimlarini shakllantiradi.

Аннотация

Минтақада туризмни ривожлантириш учун тармоқларни кластерлаш, Кластерлар соҳасида бир қанча таниқли олимлар илмий тадқиқотлар олиб боришган Вертикал интеграцияга асосланган кластерлаш турли хилдаги илмий ва технологик кашфиуотларнинг ўз-ўзидан жамланишини эмас, балки янги билим ва технологиялар тарқалишинининг тузилмавий тизимларини шакллантиради.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Mintaqada turizmni rivojlantirish uchun tarmoqlarni klasterlash yo'li orqali amalga oshirilishi mumkin bo'lgan kompleks yondashuv va kompleks tahlildan foydalanish kerak. Ayrim turistik obyektlarning (nafaqat hududiy) o'zaro bog'liqligi va mavjudligi ushbu obyektlarni klasterlarga birlashtiradi, keyinchalik ular alohida turistik -rekreatsion uyushmalari sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.

Bunday yondashuv mintaqa rivojlanishini boshqarish masalalarining hajmini sezilarli ravishda qisqartiradi. Klasterlar ham doimiy, ham vaqtinchalik asosda yaratilishi mumkin. Ular kapital qo'yilmalarni o'zlashtirish shaklida investitsion faoliyat davrida shakllantirilib, qurilish tashkilotlarini o'z ichiga oladi.

Klasterlar sohasida bir qancha taniqli olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Turli mualliflar, tadqiqotning mazmuniga qarab, klaster tushunchasini turlicha talqin etadilar. Iqtisodiyotda klasterli yondashuvning asoschisi M. Porter hisoblanib, uning fikricha, klasterlar-geografik jihatdan qo'shni bo'lgan o'zaro munosabatdagi kompaniyalar va ma'lum bir sohada ular bilan bog'liq bo'lgan tashkilotlar guruhi bo'lib, faoliyatining umumiyli va bir-birini o'zaro to'ldirib turishi bilan tavsiflanadi.

Turistik sohada klasterlar o'zaro munosabatdagi turistik mahsulotlarni ishlab chiqish, ishlab chiqarish, targ'ib qilish va sotish bilan, shuningdek turizm va rekreatsion xizmatlar bilan birgalikda faoliyat yuritadigan korxonalar va tashkilotlarning ma'lum bir hudud doirasida to'planishi hisoblanadi.

Turistik-rekreasion klasterlarni yaratishdan maqsad sinergetik natijalar-klaster tarkibiga kiruvchi tashkilot va korxonalar faoliyatining samaradorligi oshishi, innovatsiyalar ragʻbatlantirilishi, yangi yoʻnalishlarni rivojlantirish ragʻbatlantirilishi orqali turistik bozorlarda hududning raqobatbardoshligini oshirishdan iborat.

Turistik klasterlarni yaratish amaliy jihatdan hududning joylashuvini aniqlab, mintaqa obroʻining shakllanishiga taʼsir koʻrsatadi.

Bu holat boʻyicha turizm sohasini rivojlantirishni rejalashtirayotgan hududda transport-logistik tizimini rivojlantirishning bir qator ijobiy tomonlari aniqlandi. Oʻz navbatida, mintaqa turistik sohasining klasterli modeli klasterning texnologik negizini yaratuvchi kamida toʻrtta texnologik guruhlarining birlashishini nazarda tutadi.

Birinchidan, ilgʻor ilmiy laboratoriyalar-yangi texnologiyalar asosini yaratuvchi tajribali korxonalar, bizning holatda bu mintaqaviy turizm rivojlanishini tartibga solish boʻyicha Idoralararo muvofiqlashtiruvchi kengash.

Ikkinchidan, ishlab chiquvchilar markazi-munitsipal tuzilmalarda turizm boʻyicha ijtimoiy muvofiqlashtiruvchi kengash.

Uchinchidan, sanoat va texnologik guruhlar- ishlab chiqarish uskunalash ishlarini amalga oshirib, ular korxonaga yoki assotsiatsiyaga hisoblanadi.

Toʻrtinchidan, marketing guruhlariga-tovar va xizmatlarni jadallashtirish va barqaror talab, turistik va reklama agentliklarini yaratishga qodir.

Klasterlar innovatsion tizimlar boʻlib, ular mintaqalarning samarali iqtisodiy rivojlanishi uchun negiz boʻlishi mumkin. Klasterli yondashuv maʼlumotlarni birlashtirishning yangi shakllarini yaratish uchun juda katta salohiyatga ega asos hisoblanib, innovatsion ilmiy-texnik yoʻnalishlari paydo boʻlishi va ularning tijoriy takliflarini ragʻbatlantiradi, taʼlim, fan va biznes sohasini bilvosita qoʻllab-quvvatlaydi.

Turistik klasterlarni, ayniqsa kichik tadbirkorlik tuzilmalarining birlashuvi asosida tashkil etilgan klasterlarni yaratish va ular faoliyatini olib borish shartlari innovatsion texnologiyalar asosida istiqbolli loyihalarni investitsiyalash shartlari boʻlishi ham mumkin. Bu yerda, -innovatsiyalil tushunchasini, birinchidan innovatsion faoliyatning rivojlanishi va samaradorligiga hissa qoʻshadigan yangilik sifatida, turizm sohasida klasterlashni tashkil etish, tarqatish va foydalanishdan iborat rivojlanayotgan kompleks jarayonlarini oʻzida namoyon etuvchi maxsus iqtisodiy yondashuv, ikkinchidan esa, majmuaviy klasterning oʻz-oʻzidan paydo boʻlishi, bu-mintaqaning iqtisodiy tizimi doirasidagi yangilik boʻlib, ijtimoiy amaliyotda sezilarli oʻzgarishlarga olib keladi.

Taʼkidlash lozimki, faoliyatning maʼlum bir sohasi atrofida toʻplanadigan tarmoq klasterlari hamda tarmoqlararo klasterlar mavjud.

Masalan, turistik-rekreasion klaster bevosita quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

- turizmni tashkil etish (turagentlar, turbyuro va boshqalar);
- mehmondoʻstlik sanoati korxonalari (kemping, otel va boshqalar);
- umumiy ovqatlanish (restoran, kafe, barlar);
- transport (temir yoʻl, havo, avtomobil ijarasi);
- reklama va boshqa soha muassasalari, shuningdek turizm infratuzilma toifasiga kiruvchi va unga yoʻldosh boʻlgan kompaniyalar va boshqalar.

Turizm uchun, shuningdek maʼlum bir yoʻnalishdagi (hudud, korxonaga va boshq.) klaster tizimining tarkibiy qismlari (zvenolari) shaklidagi boshlangʻich turistik klaster kabi tushunchaga ega.

Klasterlarning shakllanishi va rivojlanishi mintaqada barqaror biznes rivojlanishi strategiyasining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, biznes uchun klaster o'z raqobatbardoshligini ta'minlash uchun, ya'ni besh-o'n yil va undan ko'proq davrda korxonalarni rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli strategiyani yaratish uchun haqiqiy imkoniyatdir. Bu yerda muvaffaqiyatga erishishning asosiy omillari biznes rahbarlarining faol pozitsiyasi va mintaqadagi turli tashkiliy guruhlarining manfaatlari orasidagi ijobiy hamkorlikdir. Shunday ekan, klasterning muvaffaqiyat kaliti bo'lib taraqqiy etgan raqobat, rahbarlarga yo'naltirilganlik va mintaqa ma'muriyati tomonidan ko'rsatiladigan ko'mak hisoblanadi.

Klaster tizimlarini rivojlantirish va uni rag'batlantirish asosida mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish biznes faolligi va tashabbusi, shuningdek biznes va ijro etuvchi, qonun chiqaruvchi kuchlarning birgalikdagi sa'y-harakatini o'z ichiga oladi. Turistik klasterlarni yaratish va rivojlantirishda ishbilarmonlar va hukumatning ahamiyati turlicha, lekin o'zaro bir-birini to'ldirib boradi. Klasterlarni rivojlantirish yo'llaridan biri, turli darajadagi ma'muriy tuzilmalarning iqtisodiy va ijtimoiy dasturlari hisoblanadi.

Bugungi kunda bu jarayon respublikamizning, ayniqsa, Charvoq erkin turistik zonasida kuzatilmoqda. Mintaqalarni rivojlantirishning bu kabi iqtisodiy strategiyasi hududning madaniy-tarixiy yodgorliklariga zarar yetkazmaydigan turizm sanoati va mehmondo'stlik korxonalaridan iborat kichik va o'rta korxonalar birlashuvi uning rivojlanishining belgilariga aylanishini anglatadi.

Turistik-rekreasion klaster uyushmalarini yaratish tashabbusi bilan kichik tadbirkorlikni namoyish etish maqsadga muvofiqdir. O'z navbatida, klasterlarni tashkil etish va rivojlantirish barcha miqyosda, korxonadan tortib mintaqa miqyosidagi tuzilmalar uchun bir qancha ustunliklarni yaratadi.

Misol uchun, turizm klasteri paydo bo'lishida biznes sohasida ijobiy tomonlari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

- ✓ klaster doirasida talablarni birlashtirish tufayli bozorga olib chiquvchi to'siqlarni kamaytirish imkoniyati;
- ✓ xizmat ko'rsatish xodimlarini uyushgan holda o'qitish samaradorligiga erishish imkoniyatining paydo bo'lishi;
- ✓ uskunalar, jihozlar va axborot texnologiyalari mahsulotlarini xarid qilish samaradorligini oshirish;
- ✓ buyurtmalarga (mijozlarga) kirish imkoniyatini osonlashtirish va oshirish;
- ✓ klasterning ijobiy mavqeini (brendini) uning ishtirokchilariga o'tkazish;
- ✓ mintaqadagi kasbiy ta'lim tizimlarining (budjetdan moliyalash hisobidan) klaster korxonalari ehtiyojlariga moslashtirish imkoniyati paydo bo'lishi;
- ✓ mintaqada amalga oshirilayotgan mintaqaviy innovatsion va boshqa turdagi dasturlar klaster manfaatlarini hisobga olishi mumkin.

Iqtisodiyotda izolyatsiyalangan kompaniya va tarmoqlar emas, balki klasterlarning ustunligi o'zaro aloqadagi geografik jihatdan yuqori to'yingan tarmoqlarga ega mintaqaviy iqtisodiyot uchun ham juda muhimdir. Bu yerda klasterlar rivojlanishining ijobiy tomonlari ham mavjud. Birinchidan, aholi bandligini oshirishni ta'minlaydi, ikkinchidan, malakali mutaxassislarni jalb qiladi, uchinchidan, iqtisodiyot va xizmatlar sohasida aralash sektorlarning rivojlanishini ta'minlaydi.

Muayyan bir shahar ki mintaqa iqtisodiyoti uchun klasterlar paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan muhim natija tadbirkorlik tuzilmalarida (jumladan, turistik sohada, bir-biriga bog'liq va yo'ldosh tarmoqlarda) faoliyat yuritadigan kishilarning ish o'rinlari bilan ta'minlanishlari kafolatlangan bo'ladi. Bundan tashqari, kichik tadbirkorlikda band bo'lganlar sonining ortishi, soliq bazasini saqlab qolish va oshirish, ishsizlik bo'yicha nafaqalarni qisqartirish va hokazolar.

Umuman davlat iqtisodiyoti uchun klasterlar ichki bozorning o‘shish nuqtalari rolini bajaradi. Klaster tuzilmalari alohida kompaniyalarning raqobatbardosh ustunliklarini oshirishga, shunga muvofiq muayyan iqtisodiy ta’sirga erishish imkonini beruvchi tuzilmalarga bog‘liq. Klasterlar alohida korxonalar yoki tarmoqlar uchun o‘rganish va prognoz qilishda muqobil obyekt sifatida namoyon bo‘lib, shu bilan bir vaqtda, mintaqaviy rivojlanish strategiyasi doirasida qo‘llab-quvvatlovchi obyekt hisoblanadi.

Umuman olganda, klasterlar rivojlanishining ikkita o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi strategiyalarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- mavjud klasterlardagi bilimlardan foydalanishni oshirishga yo‘naltirilgan strategiya;
- klasterlar ichida yangi hamkorlik tarmoqlarini yaratishga yo‘naltirilgan strategiya.

Turizmi rivojlangan mamlakatlarda samarali faoliyat yuritayotgan klasterlar strategik investorlar va yirik kapital qo‘yilmalarining paydo bo‘lishida istiqbolli tuzilmaga aylanmoqda. Klasterli tuzilmalar markazi bo‘lib, odatda bir qancha yirik kompaniyalar hisoblanib, bunda ular o‘rtasida raqobatbardosh munosabatlar saqlanib kelmoqda, lekin, ayni paytda klasterlar kichik korxonalarining rivojlanishiga ham olib keladi. Bundan tashqari, tashkilotlarning klasterli shakli innovatsiyalarning maxsus-umumiy innovatsion mahsulot shaklining yaratilishiga olib keladi.

Vertikal integratsiyaga asoslangan klasterlash turli xildagi ilmiy va texnologik kashfiyotlarning o‘z-o‘zidan jamlanishini emas, balki yangi bilim va texnologiyalar tarqalishining tuzilmaviy tizimlarini shakllantiradi. Bu yerda innovatsiyalar bo‘yicha g‘oyalarning, raqobatbardosh ustunliklarda esa innovatsiyalarning samarali transformatsiyasining asosiy sharti bo‘lib, klasterning barcha ishtirokchilari o‘rtasida barqaror aloqalar tarmog‘ining shakllanishi hisoblanadi.

Strategik rejalashtirish doirasida investitsion siyosat belgilanadi, bu yagona strategiya bo‘lib, uning asosida klaster tuzilmasining turli ishtirokchilarining sa’y-harakatlarini birlashtirishga qaratilgan qarorlar qabul qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 5 oktabr 2020 yil, PQ-6079-sonli
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 28.04.2020 yildagi PQ-4699-sonli
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 15.07.2019 yildagi 589-sonli
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2020-yil 17-martdagi PQ-4642-sonli
5. TURIZM—MAMLAKAT IQTISODIYOTINING STRATEGIK TARMOG‘I E G‘Ulomxasanov, B Ruziyev, M Lazizova... - Scientific progress, 2022
6. B Ruziyev, O Shokirov, H Daminov. TURIZM VA MILLIY IQTISODIYOTDA DAVLAT IMIDJI //- Scientific progress, 2022
7. E G‘Ulomxasanov, B Ruziyev, S Akramov. TURIZMDA DESTINATSIYA // - Scientific progress, 2022